

HUQUQIY KOMPONENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI VA OLIY TA'LIM HAMKORLIGINING PEDAGOGIK ASOSLARI

G'oyibov Jo'rabek Choriyevich

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda ichki ishlar organlari va OTM hamkorligining pedagogik asoslari, huquqiy kompetentlik tushunchasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Huquqiy kompetentlik, pedagogik asos, hamkorlik, huquqiy ong, metodologik yondashuvlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish va o'qituvchilarning maqomi to'g'risida qonunlarning qabul qilish jarayonlarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida ustuvorlik berilayotgani hech kimga sir emas. Bu jarayonlar, albatta, talabalar kontingentining ishtirokisiz bo'lmaydi.

So'nggi yillarda ta'lim sohamizga kompetentlik va kompetensiya tushunchalari kirib keldi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish O'zbekiston Oliy ta'lim tizimini yagona xorij ta'lim makoniga integrasiya qilish tendensiyasi va tajribasi bilan bog'liq holda olib borish yo'lga qo'yildi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari ma'lum darajadagi huquqiy malakaga ega bo'lgan bitiruvchini tayyorlash zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni "hozirgi paytda jahon ta'lim sohasida yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajaga ega yangi shaxs – "qonunni anglaydigan fuqaro" shakllanmoqda".

Shu munosabat bilan Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z mutaxassisliklari bo'yicha ko'nikma va amaliyotga ega bo'lgan, o'z faoliyatining huquqiy normalari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Binobarin, G.A.Firsovning fikricha, zamonaviy ta'lim talabasining asosiy vazifasi:

-birinchidan, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, ko'nikma, amaliyot, o'z imkoniyati va mas'uliyatini anglab yetishlari, o'z huquq va majburiyatlarini bilishlari;

ikkinchidan, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan huquqiy bilimlarni olish va amaldagi qonunlar, huquqiy normalarni mustaqil tushunish, ularni mohirona anglash va kasbiy faoliyatda qo'llash imkonini beradigan ko'nikmalarni egallashi.¹

Huquqiy kompetensiya degani nima o'zi?

¹ Фирсов Г.А. Формирование правовой культуры в учреждениях профессионального образования: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. М., 2006

Huquqiy kompetensiya deganda-ta'lim jarayonining me'yoriy-huquqiy asoslari, xususan, uni modernizatsiyalash borasidagi hujjatlar yuzasidan bilimlar, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari hamda me'yorlariga amal qilish, bolalar va o'smirlarni ijtimoiy yomon illatlardan muhofaza qilishni bilish, ta'lim jarayonida talabalarning hayoti va salomatligini asrashni bilish, Oliy ta'lim muassasasi va auditoriya hujjatlarini yuritish ko'nikmasiga ega bo'lish demakdir.

Huquqiy kompetensiya shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Buni Prezidentimizning 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618 sonli Farmonidan ham bilishimiz mumkin.²

Ushbu farmonda ham yoshlarning va bolalarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirishga, shuningdek, huquqiy kompetensiyani joriy etish chora tadbirlari sanab o'tilgan va huquqni muhofaza qiluvchi organlarni bu sohaga jalb qilish masalasiga ham e'tibor qaratilgan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, Ichki Ishlar organlarining bu ishga jalb qilinishi va Oliy ta'lim bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bu sohada qilinadigan fenomal harakat deb hisoblayman. Xo'sh, nima uchun aynan Ichki ishlar organlari talabaning huquqiy kompetensiyasini oshirishda Oliy ta'lim bilan hamkorlik qilishi kerak va uning pedagogik asoslari qanday bo'ladi?

Birinchidan, ichki ishlar organlari har qanday vazifalarni bajarishda o'zining tezkorligi va sifatliiligi bilan boshqa organlardan farq qiladi. Shu narsadan kelib chiqib xulosa qilish mumkin, yoshlarni tezda huquqiy kompetensiyasini oshirish mumkin;

Ikkinchidan, voyaga yetmaganlar va yoshlarda ichki ishlar xodimlari haqida shakllangan noto'g'ri dunyoqarashni (talabalar bilan qilingan so'rovlar shuni ko'rsatyaptiki, 70-80% talabalar ichki ishlar organ xodimlaridan qo'rqadi va ularni jahldor, doim insonlarni qamaydigan va muomalasiz deb o'ylaydi) yo'q qilish;

Uchinchidan, ichki ishlar organlarining jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan funksiyasini bajarishni qamrovli olib borishga ko'maklashadi;

To'rtinchidan, Oliy ta'limda bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish bilan birgalikda malakali huquqiy kompetensiyaga ichki ishlar xodimlarini ishga taklif qilish imkoniyati oshadi va shu orqali kadrlarning sifati ta'minlanadi;

Beshinchidan, davlat mexanizmining samarali ishlashi, davlat organlarining hamkorligi, yagona maqsad kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish imkoniyatlarini tezlashtiradi;

Ichki ishlar organlari talabalarning huquqiy kompetensiyasini oshirishda, Oliy ta'lim bilan hamkorlikda quyidagi usullardan foydalanishi kerak:

² <https://lex.uz/docs/-4149765>

- Oliy ta'lim talabalari bilan ichki ishlar xodimlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalangan holda tizimli asosda davra suhbatlari tashkil etish;

- Talabalarga o'quv qo'llanmalaridan tashqari huquqqa oid qiziqarli, hajmi kichik bo'lgan va huquqiy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish imkoniyatini yaratadigan qo'llanmalar tayyorlash;

-Haftada bir kuni "Huquqiy axborot kuni" sifatida huquqshunos o'qituvchilar va ichki ishlar xodimlari mutaxassis va nomutaxassis yo'nalishlarda, ma'naviyat soatlarida qatnashib talabalarni yangiliklar bilan tanishtirib chiqish;

-Ichki ishlar va Oliy ta'lim matbuot xizmatlari, shuningdek, boshqa ommaviy axborot vositalarining hamkorligini yo'lga qo'yish, huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni, qo'llashni kengaytirish;

-Ichki ishlar organlari va Oliy ta'lim o'qituvchilari o'zaro hamkorlikda dual darslarni tashkil qilish va ularning doimiy ravishda o'tkazish;

-Talabalarni ichki ishlar organlari ma'muriy binolariga taklif qilib ish jarayonlar, hujjatlar va ichki ishlar organlarining vazifalari bilan tanishtirish.

-Ichki ishlar organlari xodimlari bilan Oliy ta'lim o'qituvchilari o'zaro hamkorlikda huquqiy kompetensiyani shakllantirishning ilmiy asoslarini chuqurroq tadqiq etish;

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, huquqiy kompetensiyasi shakllangan, malakali, chuqur bilim va salohiyat egasi bo'lgan kadr har qaysi sohada yuqori natijalarga erisha oladi. Buning uchun esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ayniqsa, ichki ishlar organlarining samarali faoliyati, ularning Oliy ta'lim bilan hamkorlik qilishlari suv va havodek zarur. Zero, yurtimizda yetishib chiqayotgan har bir yosh kadr, avvalo, o'z huquqlarini bilsa, tushunsa, anglasa, kelgusida aldanib qolmaydi, ichki ishlar organlarini asosiy vazifasi bo'lgan insonlarning huquq va erkinlarini himoya qilishdek oliy vazifaga ko'maklashadi. Demak, biz ichki ishlarga huquqiy kompetensiyani oshirishda Oliy ta'lim bilan hamkorlik vazifasini qo'yganimizda, uning vazifasini ko'paytirayotganimiz yo'q, balki uning zimmasiga yuklatilgan ishlar sonini kamaytiryapmiz. Mazkur vazifalarni amalga oshirish nafaqat ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishga, balki har bir talaba shaxsida kasbiy va huquqiy qadriyatlarni qaror toptirish yo'llarini izlab topishga imkon beradi. Shuni unutmaslik kerakki, yuksak huquqiy madaniyat-mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi PF-5618-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019 y., 06/19/5618/2452-son.
4. Анисимов В.В. Общие основы педагогики. – М.: Просвещение, 2006. – 574 с.[электрон ресурс]
5. Зимняя, И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании [Текст] / И. А. Зимняя. – М. : Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. .[электрон ресурс] 5.Захаров В.В. К вопросу о подготовке учителей права. Материали Всероссийской научно-практической конференции. Москва, 2002: 192 – 194 [электрон ресурс]
6. Озхегов С.И. Словарь русского языка. Москва, 1981: 255 – 256 с.[электрон ресурс]
7. Каминская, В.И. Правосознание как элемент правовой культуры/ В.И. Каминская, А.Р. Ратинов// Правовая культура и вопросы правового воспитания. М., 1974. - 57с .[электрон ресурс]
8. Хамраев А.А. Формирование правовой культуры личности /Теория и практика.: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. - Т.: 1993.- 27 с. 46
9. Яковлев Е.В. Педагогическое исследование: содержание и представление результатов. – Челябинск: Изд-во РБИУ, 2010. – 317 с. [электрон ресурс]
10. Грант Н.Л.и др. Общетеория право и государства. Учебник.2-е першр.и доп.М.:Юристь.1996.-57 с .[электрон ресурс]
11. Социологическая энциклопедия /Рук. науч. проекта Г.Ю. Семигин. Т. 1. С. 461.[электрон ресурс]
- 12.<http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-12.htm>. - В надзаг: Центр дистанционного образования "Эйдос", e-mail: list@